

**SHAHARLARNING IJTIMOY MUAMMOLARI
(FARG‘ONA SHAHAR NODIRABEGIM MFY MISOLIDA)**

Nuriddinov Muhammadkarim

Farg‘ona davlat universiteti Ijtimoiy ish

1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada urbanizatsiya jarayonlari sharoitida shahar mahallalarida yuzaga kelayotgan ijtimoiy, ekologik va infratuzilmaviy muammolar tahlil qilinadi. Xususan, Farg‘ona shahridagi “Nodirabegim” MFY misolida ijtimoiy begonalashuv, yashil hududlar tanqisligi va kommunal xizmatlar muammolari o‘rganilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Urbanizatsiya, mahalla, ijtimoiy begonalashuv, ekologik muammolar, infratuzilma, yashil hududlar, kommunal xizmatlar.*

Annotation

This article analyzes social, environmental, and infrastructural problems arising in urban neighborhoods under the conditions of urbanization. In particular, the study examines the issues of social alienation, lack of green spaces, and deficiencies in communal services using the example of the “Nodirabegim” neighborhood in Fergana city. Practical recommendations for addressing these challenges are proposed.

Keywords: *Urbanization, neighborhood, social alienation, environmental issues, infrastructure, green spaces, public services.*

Аннотация

В данной статье анализируются социальные, экологические и инфраструктурные проблемы, возникающие в городских махаллях в условиях урбанизации. В частности, на примере МСГ «Нодирабегим» города Ферганы рассматриваются проблемы социальной отчужденности, нехватки зеленых зон и недостатков коммунальных услуг. Разработаны практические рекомендации по их решению.

Ключевые слова: *Урбанизация, махалля, социальная отчужденность, экологические проблемы, инфраструктура, зеленые зоны, коммунальные услуги.*

Kirish

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida “Inson qadri uchun” tamoyili turibdi¹⁰⁷. Mazkur tamoyil asosida mahallabay ishlash tizimi joriy etilib, aholi muammolarini joyida hal etish mexanizmi kuchaytirilmoqda¹⁰⁸. Farg‘ona shahridagi “Nodirabegim” MFYda 1,500 ta oila va 3,420 nafar aholi istiqomat qiladi. Aholining katta qismini harbiy xizmatchilar tashkil etishi hududning ijtimoiy muhitini o‘ziga xos tarzda shakllantiradi.

Asosiy qism

Urbanizatsiya jarayoni bugungi kunda O‘zbekistonda jadal sur‘atlarda kechib, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va aholining turmush tarziga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Aholining shaharlarga ko‘chib kelishi natijasida hududlarda demografik zichlik ortib, bu o‘z navbatida ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasiga olib kelmoqda. An’anaviy mahalla tizimiga xos bo‘lgan yaqin qo‘shnichilik aloqalari, o‘zaro yordam va jamoaviylik kabi qadriyatlar asta-sekin zaiflashib bormoqda¹.

Shahar sharoitida aholining zich joylashuvi, turmush ritmining tezlashuvi va individualizmning kuchayishi natijasida insonlar o‘rtasidagi bevosita ijtimoiy aloqalar kamayadi. Bu esa ijtimoiy begonalashuv (alienatsiya) jarayonini kuchaytiradi². Ijtimoiy begonalashuv – bu shaxsning jamiyatdan, jamoa hayotidan va hatto o‘zining ijtimoiy rolikidan uzoqlashuvi bilan tavsiflanadi.

Farg‘ona shahridagi “Nodirabegim” MFY misolida ushbu jarayonlar quyidagicha namoyon bo‘lmoqda. Qo‘shnichilik munosabatlari sustlashgan, ya’ni aholi o‘rtasida kundalik muloqot va o‘zaro yordam darajasi pasaygan, aholi o‘rtasida ijtimoiy begonalashuv kuchayib, insonlar ko‘proq individual hayot tarzini afzal ko‘rmoqda, jamoatchilik nazorati pasayib, mahalla ichidagi ijtimoiy tartibni ta’minlash mexanizmlari zaiflashgan.

Mazkur holat ayniqsa harbiy xizmatchilar oilalarida yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Buning asosiy sabablari sifatida ularning xizmat faoliyati bilan bog‘liq yuqori bandlik darajasi, tez-tez xizmat safarlari va yashash joyining tez-tez o‘zgarishini ko‘rsatish mumkin. Natijada ular mahalla hayotida faol ishtirok eta olmaydi va ijtimoiy integratsiya jarayoni sust kechadi.

Shuningdek, ijtimoiy begonalashuvning kuchayishi mahalla institutining ijtimoiy nazorat, birdamlik va o‘zaro mas’uliyat kabi muhim funksiyalarini bajarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa uzoq muddatda jamiyatda ijtimoiy kapitalning kamayishiga olib kelishi mumkin.

¹ Mahalla instituti faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar.

² Wirth, L. *Urbanism as a Way of Life*. American Journal of Sociology.

Ekologik muammolar O‘zbekistonda shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shunga qaramay, ayrim hududlarda yashil maydonlar yetishmasligi kuzatilmoqda. “Nodirabegim” MFYda ekologik muammolar orasida daraxtlar va yashil hududlar kamligi bu esa shu hudud aholi salomatligiga salbiy ta‘sir mavjud. Bolalar maydonchalarining yetishmasligi ham muhim ijtimoiy muammo hisoblanadi.

Infratuzilmaviy muammolar O‘zbekistonda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq joylarda ayrim kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Mazkur mahallada, chiqindi xizmati sifati past, sanitariya holati talab darajasida emas, infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, urbanizatsiya jarayonlari shahar mahallalarining ijtimoiy, ekologik va infratuzilmaviy holatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Farg‘ona shahridagi “Nodirabegim” MFY misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, aholining zichlashuvi va turmush tarzining o‘zgarishi natijasida an‘anaviy mahalla qadriyatlar — qo‘shnichilik, o‘zaro yordam va jamoaviylik sezilarli darajada zaiflashmoqda. Bu esa ijtimoiy begonalashuvning kuchayishiga hamda aholi o‘rtasida ijtimoiy aloqalarning kamayishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, hududda yashil maydonlarning yetishmasligi va bolalar maydonchalarining kamligi ekologik hamda ijtimoiy muammolarni yanada keskinlashtirmoqda. Kommunal xizmatlar sifatining pastligi va chiqindilarni boshqarish tizimidagi kamchiliklar esa aholi turmush darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo‘nalishlarda tizimli choralar ko‘rish maqsadga muvofiq:

- mahalla darajasida ijtimoiy faollikni oshirish va aholini jamoaviy tadbirlarga keng jalb etish;
- yashil hududlarni kengaytirish hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish;
- bolalar va yoshlar uchun zamonaviy dam olish va sport maydonchalarini tashkil etish;
- kommunal xizmatlar sifatini yaxshilash va chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish;
- mahalla institutining ijtimoiy nazorat va integratsiya funksiyalarini kuchaytirish.

Umuman olganda, urbanizatsiya sharoitida mahalla tizimini zamon talablari asosida rivojlantirish, uning ijtimoiy ahamiyatini saqlab qolish va mustahkamlash barqaror shahar rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mahalla institutini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mahalla tizimi faoliyatini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlari.
3. Wirth, L. *Urbanism as a Way of Life*. American Journal of Sociology.
4. Giddens, A. *Sociology*. Cambridge: Polity Press, 2009.
5. Castells, M. *The Rise of the Network Society*. Oxford: Blackwell, 2010.
6. Jacobs, J. *The Death and Life of Great American Cities*. New York: Random House.
7. UN-Habitat. *World Cities Report*. United Nations Human Settlements Programme, 2020.
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
9. Abdullayev, A. *Shahar sotsiologiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
10. Karimov, S. *Urbanizatsiya jarayonlari va ularning ijtimoiy ta’siri*. Toshkent, 2021.